***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI***
***YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI***

***JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI***
***FARG‘ONA FILIALI***

**“SOG‘LOMLASHTIRISH-JISMONIY TARBIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH”**
**MODULI**

***2–mavzu: (nazariy)***

# Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati

***O‘qituvchi:*** *Kuzibayev Rustamjon Abdulxayevich*

# REJA:

**Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati.**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusini joriy qilinishi va amalga oshirilgan vazifalar to‘g‘risida.**

**Jismoniy tarbiya – sog‘lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda sport mashg‘ulotlari atamalari.**

## Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari mazmuni va mohiyati.

**Bugungi kunda Respublikamizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi tub islohatlar ta’lim-tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish ishlarini ham mutlaqo yangicha mazmun, shakl va vositalarda tashkil etish, ular uchun yaratilgan misilsiz imkoniyatlardan yanada to‘laroq foydalanib, o‘sib kelayotgan yoshlarimizni Vatanga munosib farzandlar qilib tarbiyalashdek, o‘ta muhim vazifalarni hal qilishga undaydi.**





**O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni, 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 15 sentyabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-sonli, 2017 yil 9 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-sonli Farmoni.**

**Vazirlar Mahkamasining**
**2022-yil 4-iyuldagi**
**“O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi**
**355-sonli qarori**

# O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusini joriy qilinishi va amalga oshirilgan vazifalar to‘g‘risida.

Jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u beriladi

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To‘rtinchi tashabbus** yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.

***Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda mo'ljallangan me'yoriy xujjatlar «Maktabgacha ta'limiga qo'yilgan Davlat talablari» "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari, jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasi kompetensiyalari, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari, bilish jarayonining rivojlanish sohasi kompetensiyalari, ijodiy rivojlanish sohasi kompetensiyalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish hamda asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, irg'itish-emaklash, to'siqlardan oshib o'tish, milliy, harakatli hamda tinch o'yinlarning nomini bilishi va o'ynashi zarur deb ko'rsatilgan.***

***Jismoniy tarbiya instuktorining ish hujjatlarini yuritish tartibi:* O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 2-noyabrdagi «Maktabgacha ta'lim muassasalarining ish hujjatlari to'g'risida»gi 252-sonli hamda 2016-yil 4-fevraldagi «Maktabgacha ta'lim muassasalarining ish hujjatlari to'g'risida»gi 33-sonli buyruqlari asosida tarbiyachilarning ish hujjatlari belgilab berilgan:**

***1. Haftalik mashg'ullotlari jadvali.***

***2. Ish rejasi.***

***3. Sport bayramlari stsenariyalari va musobaqalarning rejalari.***

***4. Bolalar bilan yakka ishlash rejasi.***

***5. Pedagogi xodimlarning malaka oshirish kursidan keyingi faoliyati istiqbol rejasi.***



***Jismoniy tarbiya tizimida kun tartibi, an'anaviy mashg'ulotlar, mujassam mashg'ulotlar, chiniqtirish (tabiiy va sun'iy), jismoniy mashqlar, madaniy gigiyenik ko'nikmalar, ertalabki va kechki soatlar, quvnoq daqiqalar, davolovchi gimnastika, ritmika, sport o'yinlari tashkil etiladi.***





***Sport mashg‘ulotining atamlari.***

**Texnologiya- Muayyan ishlab chiqarish sohasidagi usullar va jarayonlar majmuasi.**

**Metod- Bu bilimga erishish usuli, olimning ma’lum tarzda tartibga solingan, ongli va izchil faoliyatidir.**

**Maktabgacha ta’lim- Turli yo‘nalishdagi maktabgacha ta’lim dasturini amalga oshiradigan ta’lim muassasasi.**

**Ta’lim- O‘qitishning mahsuli bo‘lib, o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallagan bilim, ko‘nikma, malakalardir.**

**Anglash- O‘rganilayotgan predmetni tushunish va to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish.**

**Ta’limda ko‘rgazmalik- Didaktik printsiplaridan biri. Ko‘rgazmalik o‘quv materiallarini puxta va chuqur egalashtirishga, bolalarni bilim doiralarini kengaytirishga, tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi.**

**Muloqat- Ikki yoki undan ortiq bo‘lgan shaxslarning fikr almashinuvi.**

**O‘yin- Inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan uning bolalik davriga xos bo‘lgan maxsus turi.**

**Sakrash-** To‘siqlardan o‘tishning tabiiy usuli bo‘lib, qisqa vaqt ichida asab-muskul kuchiga maksimal zo‘r berish bilan.



**O‘yin faoliyati-** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy o‘z–o‘zini qaror topshirishga, “men va jamiyat” tushunchasini ifodalashga, hayoli vaziyat, o‘yindagi rol va o‘yin qoidalarini anglashga.



# E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!